

AYOLLAR GINEKOLOGIYASI, HAYZ SIKLI UNDAGI KASALLIKLARNI DAVOLASH USULLARI VA ULARNI DAVOLASHDAGI HOZIRGI ZAMON INNOVATSIYALARI

Rajabboyeva Dilfuzaxon Abdumalik qizi
FJSTI, Davolash ishi yoʻnalishi 1-kurs talabasi
Umarova Musharraf Yunusaliyevna
FJSTI, Ijtimoiy fanlar kafedrasida assistenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ginekologiya tushunchasi, ginekologiya tarixi, ayollardagi kasalliklar, ularning tashxisi, sptomlari, ulardan kelib chiqadigan kasalliklar, davolash choralari doimiy kasallikni organizmga uzoq muddatli tasiri hamda oldini olish haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: Ginekologiya, jinsiy aʼzolar, klimakteriya, Gippokrat, Gerofil, Ibn Sino, gipomenstrual sindrom, hayz sikli, ayollar salomatligi, yalligʻlanish, infeksiya, fizioterapiya.

Ginekologiya (yun. gynaikos - ayol va logos-taʼlimot) klinik tibbiyotning bir sohasi, turli yoshdagi xotin-qizlar organizmining oʻziga xos anatomik-fiziologik xususiyatlarini hamda ularning jinsiy aʼzolari kasalliklarini oʻrganadi. Ayollarning normal jinsiy faoliyati — hayz koʻrishi, bola tugʻishi, shuningdek, bola tugʻish va hayz koʻrishdan qolishi (klimakteriya davri) hamda shu davrga xos kasalliklar, tugʻmaslik sabablari, ularning oldini olish va davolash yoʻl-yoʻriqlari oʻrganiladi. Ginekologiya 19-asrning oʻrtalarida mustaqil fan sifatida tashkil topdi. Ginekologiya tushunchasi dastlab Gippokrat, Gerofil kabi yunon shifokorlarining asarlarida keltirilgan. Ibn Siioning "Tib qonunlari"da bir qancha ginekologik kasalliklarning kelib chiqish sabablari, ularni aniqlash, davolash va oldini olish yoʻllari bayon etilgan.

Ginekologik kasalliklar jinsiy sistemaga tegishli boʻlsada, lekin u butun organizmga taʼsir qiladi. Barcha aʼzolar bir - biri bilan uzviy bogʻlanganligi uchun, ginekologik kasalliklarni butun organizm kasalliklari deb qarash hamda davolash mumkin. Bu kasalliklar boshqa azo va sistemalarning kasalligi taʼsirida ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan Turli infeksiyalar, bolalikda boshdan oʻtkazgan kasalliklar, endokrin xastaliklar, moddalar almashinuvining buzilishi kabilardir. Xotin-qizlar kasalliklari bir necha guruhlariga boʻlinadi: yalligʻlanish kasalliklari, hayz faoliyatining buzilishi, oʻsma kasalliklari, jinsiy aʼzolar rivojlanishi hamda joylashuvi anomaliyasi va shunga oʻxshash kasalliklar. Xotin-qizlar kasalliklari ichida alohida guruhni neyro endokrin sindromlar tashkil etadi; bu, asosan, gipotalamogipofizar patologiyalar bilan bogʻliq. Bular ginekologik hamda endokrinologik yoʻl bilan davolaniladi.

Mavzuning dolzarbligi: Qiz bolalar va yosh qizchalarda ham jinsiy sistema kasalliklari kuzatiladi. Bu, hayz funksiyasining buzilishi va jinsiy a'zolar rivojlanishidagi anomalialardir. Bunga, asosan, uning bolaligida boshidan kechirgan turli kasalliklari, noqulay turmush tarzi, hatto u ona qornidaligidayoq onasining birorbir jiddiy kasallik bilan og'riganligi sabab bo'lishi mumkin. Hayz funksiyasining buzilishi qizlarda hayzning kech yoki erta boshlanishi, nomuntazamligi, qon ketishi bilan kechadi. Davolash choralari qancha erta boshlansa, shuncha samarali bo'ladi.

Hayz sikli-ayollar salomatligining belgisidir. Sog'lom ayolda sikl 21 dan 35 kungacha davom etadi. Har bir ayol uchun hayz kunlarining soni individualdir, bu 3-7 kuni tashkil etadi. Agar hayz kunlari orasidagi muddat 40-60 kuni tashkil qilsa yoki 21 kundan kamroq so'ngara qisqarsa sikl buzilganligini taxmin qilish mumkin.

Hayz sikli buzilishining bir necha ko'rinishi mavjud: gipomenstrual sindrom (kamdan-kam, qisqa, kam miqdorda hayz ko'rish), ko'p miqdorda qon ketishi bilan bog'liq hayz sikli buzilishi, algodismenoreya, ya'ni og'riqli hayz ko'rish. Hayz sikli bilan bog'liq muammolarning asosiy sabablari: asab tizimining buzilishi, stress; -gormonal o'zgarishlar-kichik tos sohasi ichki organlarining yuqumli kasalliklari, irsiy omil, iqlim o'zgarishlari, dori-darmonlarni qabul qilish, -semizlik yoki haddan tashqari ozg'inlik, ichki organlar patologiyasi, tuxumdonlardagi xavfsiz/xavfli o'smalar, bachadondan tashqari homiladorlik, bolalikdagi tez-tez shamollashlar (12 yoshgacha) bolalik paytida qizilcha va suvchechak kabi kasalliklar bilan og'riganlik.

Hayz sikli buzilganda namoyon bo'ladigan belgilar quyidagilardir: hayz sikli muntazamligining buzilishi, qon miqdorining kamayishi, hayz sikli davomiyligining qisqartirish, hayz paytida doimiy kuchli og'riq. Sanab o'tilgan alomatlar kuzatilganda zudlik bilan ginekologga murojaat qilish lozim. Birlamchi tekshiruvdan tashqari, ginekolog kasallikning sababini aniqlash uchun to'liq tekshiruv o'tkazadi. Hayz sikli buzilishini tashxislash va davolash uchun quyidagi tekshiruvlardan o'tish lozim. Kichik tos sohasi a'zolarining ultratovush tekshiruvi, qalqonsimon bez, buyrak usti bezlari ultratovush tekshiruvi, jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar mavjudligini tekshirish, ayoldagi gormonal o'zgarishlar darajasini baholash uchun qon tekshiruvi, bachadonning ichki qatlami (endometriy) holatini tekshirish. Kasallikni aniqlashda Laboratoriya va instrumental tekshiruvlar natijalariga ko'ra ginekolog individual davolash dasturini ishlab chiqishi mumkin. Shundan so'ng, quyidagi davolash usullari tayinlanadi: infeksiyalar va yallig'lanish jarayonlari mavjud bo'lganda, dori-darmonlar va fizioterapiya usullari buyuriladi, gormonal buzilishlar uchun gormonlar darajasini normallashtiradigan preparatlar qo'llaniladi, hayz sikli buzilishining sababi o'sma jarayonlari bo'lsa, jarrohlik yo'li bilan davolash amalga oshiriladi, vitaminli komplekslar buyuriladi, ovqatlanish va uyqu rejimini tartibga solish tavsiya etiladi.

Xavfli jihatlari Nima uchun hayz siklining buzilishi xavfli? Bu xavfli ginekologik kasalliklarning rivojlanishining belgisi bo'lishi mumkin. Hatto sikldagi

kichik buzilish ham jiddiy kasalliklar boshlanayotganini bildirishi mumkin, masalan: bachadon qo'shimchalarining yallig'lanishi, sistit, tuxumdonlar yoki bachadonda xavfsiz va xavfli o'smalarining paydo bo'lishi.

Xulosa: Ayollar stress va kuchli asabiy taranglikdan saqlanishi, ortiqcha jismoniy faollikni kamaytirishi, sabzavot mevalarni ko'p iste'mol qilishi, sanitariya gigiyenaga amal qilishi lozim. Ginekologik amaliyotda jinsiy sistemaning rakoldi kasalliklarini oldini olish muhim, chunki ular vaqt o'tishi bilan rakka aylanishi ham mumkin. O'smalar ham, rakoldi kasalliklar ham odatda ko'zga yaqqol tashlanmaydigan belgilersiz kechadi, shu sababli ayollar va qizlar yilda ikki marta ginekolog tekwiruviga borish kerak. Zero, ayollar salomatligi - sog'lom avlodlar davomiyligini ta'minlaydi!!!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aliyev N., Muhammadjonov S. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL WORKERS. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR A HEALTH WORKER. MATHEMATICAL METHODS AND STATISTICS IN MEDICINE //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 39-42.

2. Nurillo N. A., Muhammadjonov S., Tojimatova L. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL PERSONNEL. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR THE HEALTH WORKER //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 54-56.

3. Melibayeva, F. M., Aliyev, N. A., & Muhammadjonov, S. G. o'g'li. (2023). CHEKISH BILAN BOG'LIQ O'PKA KASALIKLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 719–723

4. AN Abdiqayumovich, M Sarvarbek Gayratjon o'gli. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKANING ROLI. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKA USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования 10 (6), 177-180.

5. Ravshanbekovna, M. N., Sarvarbek Gayratjon og, M., & Alijon o'g'li, T. A. (2024, January). AYRISH SISTEMASIDAGI BUYRAKNING AHAMYATI. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 16, pp. 11-14).

6. Erkinjon o'g'li, M. X. BEMORLARNI TEKSHIRISHDA DIAGNOSTIK AXAMIYAT.

7. Madraximova, N. R. (2024). O 'PKA KASALLIKLARNI ANIQLASHDA ZAMONAVIY DIAGNOSTIK USULLAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(4 SPECIAL), 36-38.

8. Sarvarbek Gayratjon og M. et al. BIOLOGIK QON TOMIR PROTEZ MATERIALLARINING TARKIBI VA XUSUSIYATLARINI O'RGANISH //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 36. – №. 3. – С. 112-120.

9. Sarvarbek Gayratjon og M. et al. ONKOLOGIK KASALLIKLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YANGILIKLARI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 36. – №. 1. – С. 95-99.

10. Muhammadjonov S. G. SOG „LIQNI SAQLASH TIZIMIDA DIAGNOSTIKANING MUAMMOLARI, AHAMIYATI VA ROLI.

11. Abdurazakova A. I. THE HARM OF DISHWASHING DETERGENTS AND ITS PREVENTION This article contains information about the work carried out in the Republic of Uzbekistan in maintaining public health, chemical detergents, their types and negative impact on human health and scientific //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 24. – С. 212-214.

12. Abdurazakova I. A. IDISH YUVISH VOSITALARI ZARARI HAQIDA //Экономика и социум. – 2023. – №. 1-2 (104). – С. 11-13.

11. Abduraxmonovna A. I. KOLLOID ERITMALARNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI //SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN MODERN EDUCATION. – 2023. – T. 1. – №. 9.

13. Abduraxmonovna A. I. BIOGEN ELEMENTLARNING ODAM ORGANIZMIDAGI BIOLOGIK FAOLLIGI //SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN MODERN EDUCATION. – 2023. – T. 1. – №. 9.

14. Abdurakhmonovna A. I., Ruzmatjonovich A. R. INFECTIOUS DISEASES AND THEIR PREVENTION //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2023. – T. 1. – №. 8. – С. 1-4.

15. Абдуразакова И. А. ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОИЗВОДСТВА КРАСНЫХ ДОЖДЕВЫХ ЧЕРВЕЙ В КАЛИФОРНИИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 901-905.

16. Usmonov, S., & Isroilov, S. (2023). CHAQALOQLARDA QORIN DAM BO'LISHINING SABABLARI, DAVOLASH USULLARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(4 Part 2), 196-199.

17. Abdusubxon o'g'li, U. S. (2023). YURAK ISHEMIK KASALLIKLARI VA ULARNI OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY USULLARI. *PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION*, 2(6).

18. Abdusubxon o'g'li, U. S. (2023). BUYRAK TOSH KASALLIKLARINI HOSIL BO'LISHIDA GIPODINAMIYANING TA'SIRI. *PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION*, 2(6).

19. Usmonov, S., & Alisherjonova, F. (2023). INSON TANASIDA BO'LADIGAN ELEKTR HODISALARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(4 Part 2), 200-203.

21. Isroil o'g'li, X. M., & Abdusubxon o'g'li, U. S. (2023, April). GIPERTONIYA KELIB CHIQISHI SABABLARI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS"* (Vol. 2, No. 5).

22. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. BOLALARDA GASTROENTRITNING NAMOYON BO'LISHI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS". – 2023. – Т. 2. – №. 5.

23. Abdusubxon o'g'li, U. S. (2023). KAM HARAKATLIK NATIJASIDA KELIB CHIQUADIGAN KASALLIKLARNI XALQ TABOBATI BILAN DAVOLASHNING TOP 10 TA USULI. *SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS*, 1(3).

24. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. GIPERTONIYA KASALLIGINI RIVOJLANISHINI OLDINI OLIHNING ENG YAXSHI USULLARI //SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS. – 2023. – Т. 1. – №. 3.

25. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. QONNI SUYULTIRADIGAN TOP-10 MAHSULOT //SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS. – 2023. – Т. 1. – №. 3.

26. Tiguntsev S. G., Usmonov S. B., Shafarevich K. V. Determination of the Damage Location on Multiphase and Multi-Wire Power Transmission Lines //2023 5th International Youth Conference on Radio Electronics, Electrical and Power Engineering (REEPE). – IEEE, 2023. – Т. 5. – С. 1-4.

27. Abdusubxon o'g'li U. S., Vaxobjon o'g'li Q. A. BOLALARDA ENG KO'P UCHRAYDIGAN RAXIT KASALLIGI //STUDIES IN ECONOMICS AND EDUCATION IN THE MODERN WORLD. – 2023. – Т. 2. – №. 5.

28. Abdusubxon o'g'li U. S. ELEKTROMAGNIT MAYDONINING ORGANIZMGA TA'SIRI //SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 1. – №. 2.

29. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. KONDILOMA VIRUSLARINI DAVOLASHDA KRIOGEN TERAPIYA //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 1.

30. Miradullayeva G. B., Melibayeva M. K., Avdeeva A. N. MATHEMATICAL DESCRIPTION OF RHEOLOGICAL PROPERTIES OF COMPOSITIONS USING LOCAL RAW MATERIALS FOR WORKING SURFACES OF STRUCTURAL

MATERIALS OF TECHNOLOGICAL EQUIPMENT //Мировая наука. – 2023. – №. 5 (74). – С. 20-24.

31. Райимова З. М. и др. БОРЬБА С НОВОЙ ЭПИДЕМИЕЙ КОРОНАВИРУСА ВО ВСЕМ МИРЕ И В УЗБЕКИСТАНЕ //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2 (83). – С. 328-331.

32. Muhammadmusayevich E. R. et al. KO'ZNING KAMCHILIKLARI VA TIBBIYOTDAGI DAVO CHORALARI //E Conference Zone. – 2022. – С. 124-126.

33. Ravshanbek E. et al. OPTICAL PART OF THE EYE AND RELATED DISEASES //World Bulletin of Public Health. – 2023. – Т. 19. – С. 180-181.

34. Mukhammadmusayevich E. R. AUTOMATIC CONTROL IN BIOTECHNICAL SYSTEMS //MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS. – 2024. – Т. 8. – №. 8. – С. 22-26.

35. Muhammadmusayevich E. R., Erkinovna E. M. BOLALARDA TANAHARORATI BOSHQARILISHINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 1.

36. Muxammadmusayevich E. R. REFORMS IN MODERN MEDICINE IN UZBEKISTAN //International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2024. – Т. 11. – №. 01.

37. Mukhammadmusayevich E. R. AUTOMATIC CONTROL IN BIOTECHNICAL SYSTEMS //Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2023. – Т. 10. – №. 12. – С. 720-722.

38. Muxammadmusayevich E. R. SOG'LIQ SAQLASH TIZIMINI BOSHQARISH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISH //MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS. – 2023. – Т. 7. – №. 7. – С. 13-16.

39. Mukhammadmusayevich E. R. AUTOMATING THE HEALTHCARE SYSTEM MANAGEMENT PROCESS //THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 54-57.

40. Eshonov R. M., Karimova J. TEXNOLOGIYA FANINI BIR NECHTA FANLAR BILAN BOG'LAB O'TISHDAGI USLUBIY TAVSIYALAR //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 228-232.

42. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ginekologiya>

43. https://uz.m.wiikipedia.org/wiki/Xotin-qizlar_kasalliklari